

# COOKIE FAYLLARIDAN FOYDALANISH SIYOSATI

## Oxirgi yangilanishning kuchga kirish sanasi: 11.06.2025

### MUNDARIJA:

1. Umumiy ma'lumot
2. Cookie fayllari va ularning turlari
3. Cookie fayllaridan foydalanish va ularning maqsadi
4. Cookie fayllarini boshqarish
5. Cookie fayllarini bloklash
6. Cookie fayllarini o'chirish
7. Cookie fayllaridan foydalanishga rozilik bildirish
8. Ushbu Siyosatga kiritiladigan o'zgartirishlar
9. Aloqa ma'lumotlari

### 1. UMUMIY MA'LUMOT

"**BESHIC HOTELS GROUP**" MCHJ, O'zbekiston Respublikasi qonunga muvofiq tashkil etilgan va **100068, O'zbekiston, Toshkent shahri, Bunyodkor shoh kochasi, 9a**, manzilida ro'yxatdan o'tgan, (+99899) 198-08-88, [rasulevasadbek@gmail.com](mailto:rasulevasadbek@gmail.com), («veb-sayt», «biz», «bizning» yoki «bizni») ushbu veb-saytda cookie-fayllaridan foydalanadi.

Ushbu veb-saytga tashrif buyurganingizda, biz cookie sozlamalaringizga muvofiq, qurilmangizga cookie fayllari va shunga o'xshash boshqa texnologiyalarni joylashtirishimiz mumkin. Cookie sozlamalaringizga qarab, cookie fayllari yoki shunga o'xshash texnologiyalar orqali quyidagi ma'lumotlar to'planishi mumkin: qurilmangizning noyob identifikatori, qurilmaning IP-manzili, qurilmangizning operatsion tizimi haqida ma'lumot, uyali aloqa operatori va joylashuv manzilingiz haqida ma'lumot (amaldagi ma'lumotlarni himoya qilish qonunlari tomonidan ruxsat etilgan darajada). Ushbu veb-saytga tashrif buyurib, siz ushbu Cookie Fayllaridan Foydalanish Siyosatida («keyingi o'rinlarda - Siyosat») tavsiflanganidek, cookie fayllaridan foydalanishga rozilik bildirasiz.

### 2. COOKIE FAYLLARI VA ULARNING TURLARI

Cookie-fayllar – bu saytga tashrif buyurganingizda, sayt yuboradigan va uni brauzeringizda saqlaydigan kichik matnli fayllardir. Ular sizning hisobingiz yoki brauzeringizga xosdir. «Cookie fayllarini boshqarish» bo'limida cookie fayllarini qanday qilib o'zgartirish mumkinligi tushuntiriladi. Shuni yodda tutish kerakki, cookie fayllari va shunga o'xshash texnologiyalarni butunlay o'chirib qo'yish veb-saytdagi foydalanuvchi tajribangizni buzishi va ba'zi funksiyalarning ishlashini cheklab qo'yishi mumkin.

- **Seans cookie fayllari** faqat brauzeringiz ochilganida amal qiladi va brauzerni yopganingizda avtomatik ravishda o'chiriladi;
- **Doimiy cookie fayllari** ular siz yoki brauzeringiz tomonidan o'chirilmagunicha yoki muddati tugaguncha amal qiladi.

Ushbu cookie fayllarini asosiy cookie fayllari va uchinchi tomon cookie fayllari sifatida tasniflash mumkin.

- Asosiy cookie fayllari siz tashrif buyurayotgan veb-sayt tomonidan yaratiladi va qurilmangizga joylashtiriladi. Odatda ular foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va saytning asosiy funksiyalarini ta'minlash uchun ishlatiladi;
- Uchinchi tomon cookie fayllari siz tashrif buyurayotgan sayt tomonidan emas, balki boshqa veb-sayt tomonidan yaratiladi va qurilmangizga joylashtiriladi. Ushbu cookie fayllari uchinchi tomon rasmlari yoki reklamalari kabi boshqa saytlarning elementlarini o'z ichiga olgan veb-saytga tashrif buyurganingizda yaratiladi.

O'z-o'zidan cookie fayllari aynan sizni aniqlamaydi. Ular sizning brauzeringizni aniqlaydi.

Biz cookie fayllaridan quyidagi maqsadlarda foydalanamiz:

1. veb-saytning to'g'ri ishlashini ta'minlash;
2. saytga qanday qilib tashrif buyurganingiz va qaysi qurilmadan foydalanayotganingiz asosida veb-saytni takomillashtirish.

Bizning saytimizdagi cookie fayllari odatda quyidagi toifalarga ajratiladi:

- **Zarur cookie fayllari.** Ushbu cookie fayllari va boshqa texnologiyalar saytlarimizning to'g'ri ishlashi va sizning so'rovlaringiz bajarilishi uchun zarurdir. Biz ularsiz saytning ishlashini ta'minlay olmaymiz. Ular saytning asosiy funksiyalarini va tegishli xizmatlarni qo'llab-quvvatlaydilar. Ushbu cookie fayllari vaqtinchalik va ular brauzer yopilganida o'chiriladi.
- **Tahlil qilish yoki ishlash unumdorligini aniqlaydigan cookie fayllari.** Ular bizga saytimizning foydalanuvchilari sonini aniqlash va hisoblash, shuningdek, ularning navigatsiyasini kuzatib borish imkonini beradi. Bu bizga saytimizning ishlashini yaxshilashga yordam beradi, masalan, foydalanuvchilarning kerakli ma'lumotlarga oson kirishini ta'minlaydi. Ushbu cookie fayllari vaqtinchalik va ular brauzer yopilganida o'chiriladi.
- **Funksional cookie fayllari.** Ular saytlarimizning funktsionalligini yaxshilaydi va ulardan foydalanishni yanada qulay qiladi. Masalan, ushbu cookie fayllari avvalgi tashriflaringizni eslab qoladi va avtomatik tarzda kirish uchun sozlamalarni saqlaydi. Ushbu cookie fayllari vaqtinchalik va ular brauzer yopilganida o'chiriladi.
- **Target-reklama cookie fayllari.** Ular sizni takroriy tashrif buyuruvchi sifatida aniqlash, bizning saytlarimiz va boshqa veb-saytlardagi faoliyatingizni kuzatish uchun saytlarimizga tashriflaringizni qayd qilib boradi, ko'rilgan sahifalar va havolalaringizni kuzatib boradi. Ushbu cookie fayllari doimiy hisoblanadi, chunki ular qurilmangizda qoladi va saytlarimizga qilinadigan keyingi tashriflarda foydalaniladi. Siz ushbu cookie fayllarini brauzer sozlamalari orqali o'chirishingiz mumkin.

### 3. COOKIE FAYLLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNING MAQSADI

Biz xalqaro xizmatlarimizni taqdim etish bilan bog'liq turli maqsadlarda (ular bilan cheklanmagan holda) cookie fayllaridan foydalanamiz, jumladan:

- **Zarur cookie fayllari.** Ushbu cookie fayllari veb-saytning ishlashi uchun zarur hisoblanadi. Ular yordamida saytning to'liq imkoniyatlaridan foydalanishingiz mumkin.
- **Tahlil qilish yoki ishlash unumdorligini aniqlaydigan cookie fayllari.** Biz ushbu cookie fayllaridan tashrif buyuruvchilarning veb-saytdan qanday foydalanishlari haqida

ma'lumotlarni to'plash uchun foydalanamiz. Bu bizga saytning funksionalligini va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

- **Afzallik cookie fayllari.** Ushbu cookie fayllari sizning sozlamalaringizni eslab qolishimizga imkon beradi va kengaytirilgan, moslashtirilgan funksiyalarni taqdim etadi.
- **Target-reklama cookie fayllari.** Biz sizning qiziqishlaringizga mos keladigan reklamalarni yuborish uchun cookie fayllaridan foydalanishi mumkin bo'lgan uchinchi tomon reklama hamkorlari bilan ishlaymiz.

#### 4. COOKIE FAYLLARINI BOSHQARISH

Cookie fayllarini boshqarish va ularning parametrlarini sozlashning bir nechta yo'li mavjud. Biroq, agar siz barcha muhim bo'lmagan cookie fayllarini rad qilsangiz, bu noqulayliklarga olib kelishi va siz uchun mavjud funksiyalarni cheklashi mumkin. Misol uchun, biz qidiruv so'rovlaringizni saqlay olmasligimiz yoki kompyutingizni tanimasligimiz mumkin, natijada siz har safar saytlarimizga tashrif buyurganingizda tizimga kirishingiz kerak bo'ladi. Shuni esda tutingki, saytlarimizning ishlashi uchun zarur bo'lgan juda zarur cookie fayllarini rad etib bo'lmaydi.

- **Brauzer sozlamalari:** Sizning brauzeringiz cookie fayllarini boshqarish vositalarini taqdim etishi mumkin. Boshqarish usuli brauzer va cookie fayllarining turiga bog'liq. Sizning Internet tarmog'idagi harakatlaringizning kuzatilishini rad etish uchun ba'zi brauzerlar «Kuzatilmasin» funksiyasini taklif qiladi. Ammo, bu funksiyalar hali standartlashtirilmagan, shuning uchun biz ularni hozircha qo'llab-quvvatlamaymiz.
- **Qiziqishlarga asoslangan onlayn-reklama ustidan nazorat.** Ham saytimizda, ham boshqa resurslarda foydali reklamalarni ko'rsatish uchun biz onlayn-reklama provayderlari bilan hamkorlik qilamiz. Ushbu reklama e'lonlari biz yoki uchinchi shaxslar tomonidan to'plangan ma'lumotlarga, masalan, pochta indeksi yoki saytlarimiz va boshqa veb-saytlardagi harakatlaringizga asoslanishi mumkin.

Cookie fayllarini (zarur, tahliliy va reklama cookie fayllari) boshqarish uchun brauzer sozlamalariga o'ting.

Agar siz tashrif buyurgan veb-saytlarda o'rnatilgan barcha cookie fayllarini o'chirib tashlamoqchi bo'lsangiz, ushbu Siyosatning 6-bo'limiga murojaat qilishingiz mumkin. Shuni yodda tutingki, barcha cookie fayllarini o'chirish ayrim turdagi cookie fayllariga ta'sir qilmasligi mumkin. Bundan tashqari, siz yangi kompyuter sotib olganingizda, tizimni o'rnatganingizda, brauzerni yangilaganingizda yoki uning sozlamalarini o'zgartirganingizda cookie fayllari o'chirilishi mumkin.

#### 5. COOKIE FAYLLARINI BLOKLASH

Ko'pgina internet-brauzerlar cookie fayllarini rad etish imkoniyatini taklif qilishadi. Veb-brauzeringizda cookie fayllarini boshqarishni yaxshiroq tushunish uchun quyidagi havolalarni o'rganib chiqishingiz mumkin. Shuni esda tutingki, cookie fayllarini o'chirib qo'yish nafaqat ushbu veb-saytga, balki siz tashrif buyuradigan boshqa veb-saytlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

- [Internet Explorer - Batafsil ma'lumot](#)
- [Chrome - Batafsil ma'lumot](#)
- [Firefox - Batafsil ma'lumot](#)

- [Safari - Batafsil ma'lumot](#)
- [Opera - Batafsil ma'lumot](#)
- [iPhone, iPad and other equipment from Apple - Batafsil ma'lumot](#)
- [Android phones and other equipment - Batafsil ma'lumot](#)
- [Google cookies Opt-out - Batafsil ma'lumot](#)
- [Third Party vendor's use of cookies Opt-out - Batafsil ma'lumot](#)
- [Google Analytics Opt-out - Batafsil ma'lumot](#)

Shuni ta'kidlash kerakki, cookie fayllarini bloklash ko'plab veb-saytlarning ishlashiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

## **6. COOKIE FAYLLARINI O'CHIRISH**

Siz kompyuteringizda saqlanadigan cookie fayllarini o'chirish imkoniyatiga egasiz. Buning uchun brauzer ko'rsatmalariga amal qilish kifoya. Biroq, shuni yodda tutingki, cookie fayllarini o'chirish ko'plab veb-saytlarning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, veb-saytlarning ishlashi uchun muhim bo'lgan zarur cookie fayllarini odatda o'chirib bo'lmaydi, chunki ular veb-saytning ishlashida asos sifatida xizmat qiladi.

Cookie fayllarini o'chirish haqida qo'shimcha ma'lumotga ega bo'lish uchun ushbu manbaga murojaat qilishingiz mumkin: <https://allaboutcookies.org/>.

## **7. COOKIE FAYLLARIDAN FOYDALANISHGA ROZILIK BILDIRISH**

Veb-saytga tashrif buyurish orqali siz ushbu Siyosatda tavsiflanganidek cookie fayllaridan foydalanishga rozilik bildirasiz. Agar siz cookie fayllaridan foydalanishga rozi bo'lmasangiz, brauzer sozlamalarida ularni o'chirib qo'ying yoki ushbu veb-saytga tashrif buyurmang.

## **8. USHBU SIYOSATGA KIRITILADIGAN O'ZGARTIRISHLAR**

Biz ma'lum davr mobaynida ushbu Siyosatni yangilashimiz mumkin. Kiritiladigan har qanday o'zgartirishlar ushbu sahifada e'lon qilinadi va "Kuchga kirish sanasi" yangilanadi.

Ushbu Siyosatga sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlashga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan o'zgartirishlar kiritilganda, biz sizni veb-saytimizda yoki ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun talabiga binoan xabardor qilamiz. Ushbu veb-sayt va bizning xizmatlarimizdan foydalanishda davom ettirib, kiritilgan o'zgartirishlarni rad etgan taqdirda, siz kiritilgan o'zgartirishlarga rozilik bildirgan hisoblanasiz.

Sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni qay tarzda himoya qilayotganimizdan xabardor bo'lishingiz uchun Siyosatimizning aktual versiyasini ushbu sahifada muntazam ravishda kuzatib borishingizni tavsiya qilamiz. Kiritilgan har qanday o'zgartirishlardan xabardor bo'lish sizning mas'uliyatingiz ekanligini tan olasiz va rozilik bildirasiz.

## **9. ALOQA MA'LUMOTLARI**

Ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi amaldagi qonunlarga muvofiq **"BESHIC HOTELS GROUP" MCHJ, 100068, O'zbekiston, Toshkent shahri, Bunyodkor shoh kochasi, 9a, (+99899)**

**198-08-88, [rasulevasadbek@gmail.com](mailto:rasulevasadbek@gmail.com)** shaxsiy ma'lumotlaringiz Nazoratchisi hisoblanadi. Agar ushbu Siyosat bo'yicha savollaringiz bo'lsa yoki o'z huquqlaringizdan foydalanmoqchi bo'lsangiz, iltimos, biz bilan bog'laning.

Ushbu veb-saytga tashrif buyurish orqali siz, bizning Siyosatimizni o'qib chiqib, tushunib, rozilik berganingizni tasdiqlaysiz.